

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.E.Madaliyev	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
N.R.Mansurova	
Zamonaviy oliy ta'lilda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari	120
M.M.Maxamadjonova	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi	132
D.D.Mirzaakbarov	
Koreys tilini mustaqil o'rghanishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li	136
A.Y.Axmedov	
Kommunikativ kompetentsiya bo'lajak psixoglarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida	141
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistika yo'nalishi talabalar kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati	146
S.T.Aldasheva	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	151
A.T.Nazarov	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili.....	154
U.K.Rahmonov	
Bo'lajak tarbiyachilarining estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
S.A.Mahmudova	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
J.O.Amirov	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
X.O.Pardayeva	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi	184
M.Barakayev, M.Nasritdinov	
Ta'llimi raqamlashtirish shatroitida o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
Sh.O.Aripov	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiylarining tarixi.....	195
M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomilashtirish omillari	200
D.T.Nishonova	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish	213
X.X.Abdurahmov	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
M.M.Turg'unov	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi	223



UO'K: 796:001.89:07

GIMNASTIKA MAXSUS MASHQLARI ORQALI O'QUVCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANISHINI KOMPLEKS NAZORAT QILISH

COMPLEX CONTROL OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF STUDENTS THROUGH SPECIAL EXERCISES IN GYMNASTICS

КОМПЛЕКСНЫЙ КОНТРОЛЬ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ВОСПИТАННИКОВ ПОСРЕДСТВОМ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ ГИМНАСТИКИ

Xakimov Saydullo Tulanboyevich¹

¹Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy tarbiya nazariysi kafedrasи katta o'qituvchisi

Xudoyqulov Shaxboz²

²Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish yoritib berilgan bo'lib, gimnastika sport turlari bo'yicha professional trenerlar, malakali hakamlar va mutaxassislarni tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar hamda videomateriallар ishlаб chiqilgan.

Аннотация

В статье описано развитие физических качеств посредством комплексного контроля развития физических качеств обучающихся посредством специальных гимнастических упражнений, подготовки профессиональных тренеров, квалифицированных судей и специалистов по гимнастическому спорту, разработки учебно-методических пособий и видеоматериалов.

Abstract

The article describes the development of physical qualities through comprehensive control of the development of physical qualities of students through special gymnastic exercises, training of professional coaches, qualified judges and specialists in gymnastic sports, development of teaching aids and video materials..

Kalit so'zlar: Umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, maxsus kuchmaxsus tezkorlik, maxsus chaqqonlik, maxsus egiluvchanlik, chaqqonlik, chidamlilik, tezkorlik, xotira biologik faktorlar, engashishlar, ko'tarilishlar, kuch chidamkorligi, seleksiya.

Key words: General physical training, special physical training, psychological training, special strength, special quickness, special shock, special flexibility, agility, endurance, speed, memory, biological factors, squats, power endurance, selection.

Ключевые слова: Общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка, психологическая подготовка, специальная сила, специальная быстрота, специальная ударность, специальная гибкость, ловкость, выносливость, скорость, память, биологические факторы, приседания, подъемы, силовая выносливость, отбор.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 2022-yil 23-dekabrdagi PQ-449-son qarori" asosida aholi o'rtaida gimnastika sport turlari (sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, trampolin, akrobatika) ommaviligini oshirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, xalqaro talab va standartlar asosida professional sportchilarni tayyorlash orqali milliy terma jamoalarimizning nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarga erishishini ta'minlash maqsadida:

Quyidagilar gimnastika sport turlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

-aholi o'rtaida gimnastika sport turlarining ommaviligini oshirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish;

-maktabgacha yoshdagagi bolalarning gimnastika sport turlari bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratish va ularda ushbu sport turlari bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirish;

-umumiy o'rta ta'lif maktablarining jismoniy tarbiya darslarida gimnastika sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich ko'paytirish hamda mashg'ulot va to'garaklar faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish;

-gimnastika sport turlari bo'yicha professional trenerlar, malakali hakamlar va mutaxassislarini tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar hamda videomateriallar ishlab chiqish;

-sport-ta'lif muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, respublikada gimnastika sport turlari uchun zarur bo'lgan sport jihozlari va inventarlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

-qizlar o'rtasida erta yoshdan gimnastika sport turlarini ommalashtirish, bu borada uzoq yillarga mo'ljallangan istiqbolli rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Olimpiya va Osiyo o'yinlari, jahon va Osiyo championatlariga gimnastika sport turlari bo'yicha milliy terma jamoa sportchilarini tayyorlash dasturlarini yanada takomillashtirish;

-ommaviy axborot vositalarida sog'lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi sifatida gimnastika sport turlarini targ'ib qilish hamda bu jarayonda yuqori darajali axborotlashtirishni va multimedia mahsulotlaridan foydalanishni ta'minlash lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qator adabiyotlarda gimnastika sport turi tarzidagi jismoniy mashqlarga oid fikrlar sport turi yoki asosiy o'zlashtirilishi lozim bo'lgan gimnastika mashq uchun "yo'llanma beruvchi", "tayyorlov mashqlari" sifatida ifodalaydilar (L.P.Matveyev, 1991; B.A.Ashmarin, 1978; A.Abdullayev, Sh.Xankeldiyev, 2005; D.Umarov 2021) va boshqalar maxsus mashqlari orqali o'quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish bo'yicha o'z fikrlarini bayon qilganlar.

Sport adabiyotlarda bolalar sporti nazariyasi va metodikasiga oid, ayniqsa, yosh sportchilarni mashg'ulotlari davomida ularning jismoniy sifatlarini tanlagan spot turi talablari asosidagina emas, ularni muayyan mashqning harakat tuzilmasida maqsadli qo'llash malakasini berishiga ko'ra qimmatga egaligini takidlagan mualliflarning ko'pchiligi harakat qobiliyatlarni, harakat ko'nikmalarining alohida elementlarini yoki bir butun ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlarini tanlab olish yo'li bilan erishish mumkinligi oxirgi un yil ichidagi tadkikotlar orkali isbotlandi Gimnastika qator muammolarni hal qiluvchi, ko'pqirrali jismoniy tarbiya vositasi ekanligi hozirgi kunda sir emas. Buni insoniyat tarixidagi tan tarbiyasiga oid ilmiy materiallar ham tasdiqlaydi. Gimnastika mashqlari o'qitiladigan darslar, mashg'ulotlar jismoniy tarbiya jarayonining yetakchi omili bo'lib, o'quv muassasalarida davlat dasturi asosida asosan shug'ullanuvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanish, qomatni to'g'rilash, shakllantirish, sog'liqni mustahkamlash, o'z vujudining a'zolari orqali harakatlarni mohirona, yengil katta quvvat sarflamay bajarishga o'rgatishdek, muhim vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun xizmat qiladi.

Gimnastika mashqning rivojlanishida diniy marosimlar, bayramlardagi o'yinlar, raqslar, harbiy faoliyatdagi hara- katlar, san'atdagi ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakatlar vosita bo'lib xizmat qildi.

Gimnastika mashqlarni mashq qilish tabiatning tabiiy qonuni ekanligi rus akademiklari I.M.Sehenov va I.P.Pavlovning ilmiy dunyoqarashlari orqali isbotlangan. Sechenovning fikricha, ixtiyoriy harakat ong va aql bilan boshqariladi hamda biror maqsadga yo'naltiriladi.

I.P.Pavlov esa harakatlarning fiziologik mexanizmi bosh miya po'stloq qismining to'plash xususiyati bilan bog'liqligini birinchi, ikkinchi signal sistemasi, shartli hamda shartsiz reflekslarning aktiv ishtirokida vujudga kelishini ilmiy isbotladi.

Gimnastika mashqlarning mazmuni va uning shakli. Barcha xodisa va jarayonlarga o'xshash gimnastika mashqlar o'zining mazmuni va shakliga ega.

Gimnastika mashqni bajarishda sodir bo'ladigan mexanik, biologik, psixologik jarayonlar mazmunlarining majmuyi-to'plami gimnastika mashqlarning mazmunini yuzaga keltiradi, ularning o'zaro muvofiqligi esa harakat faoliya tidagi qobiliyatni namoyon bo'lishi orqali ko'zga tashlanadi.

O'z navbatida bu jismimiz a'zolariga ma'lum darajada talablarni qo'yadi. Bu talablarga qay darajada javob berish esa jismimizda dasturlashtirilgan qobiliyatlar, sifatlar, jihatlar bilan bog'liqligini o'quvchilik yillardizda hali tushunib ulgurmaymiz. Bu jihatlarga ehtiyojni esa aqliy yoki jismoniy faoliyatimiz majburlagandagina sezamiz. Ular:

a) inson jismining kuchi;

PEDAGOGIKA


b) inson jismining chidamliligi (ishni, faoliyatni bajarishda charchashga dosh berish);
 v) inson jismining chaqqonligi (uni jonli tilda “epchillik”ka almashtirib qo’llanadi) – tanish bo’lman harakatlarni tez o’zlashtirib olish yoki o’zgarib turadigan harakat sharoitiga tez moslasha olish, harakatlarini tez muvofiqlashtira olish, kutilmagan holatda, o’zini yo’qotib qo’ymaslik;

g) inson harakatlarining tezligi – harakatlarni tez bajara olish yoki tana bo’laklarining harakati tezligi darajasi;

d) mushaklarni egiluvchanligi va bo’g’inlarning harakatchanligi deb nomlanadi.

Bunday harakat sifatlarining organizmimizda qanday holatda rivojlanganligi dasturi turli faktorlarga bog’liq. Bu faktorlarni bilmaslik o’zimizga nisbatan harakat qobiliyatlarimizning nomukammallik nuqsonlar orqali ruhiy jihatdan salbiy ta’sirlarga sabab bo’lishi mumkin 1-rasmga qarang.

Yosh gimnastikachilar jismoniy rivojlanganligi va jismoniy tayyorgarlik darajasi va psixologik tayyorgarligini takomillashtitish texnologiyasi



1-rasm. Yosh gimnastikachilar jismoniy rivojlanganligi va jismoniy tayyorgarlik darajasi va psixologik tayyorgarligini takomillashtitish texnologiyasi

Kuch qobiliyatingizni yuqori darajadaligi tanangiz skeleti mushaklarining me’yorli rivojlanganligi bilan bog’liq. Mushak tolalari yo’g’on bo’lsa, ular kuchli zo’riqish namoyon qiladi. Bunday mushaklar katta kuchga ega bo’ladi. Trenirovkalar mushak tolalarini yo’g’onlashtirishga yo’naltiriladi. Lekin, faqat kuch yoki chaqqonlik va boshqa harakat sifatlarini rivojlanterishga qattiq urinish o’zining salbiy oqibatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, amaliyotda yelkaning ikki boshli muskulining kuchini orttirish maqsadida uzlusiz trenirovkalarga berilish shu muskul guruhi muskul tolalarini o’ta yo’g’onlashib ketishi, uning hajmini xaddan ziyod katta bo’lishiga olib kelishi kuzatilgan. Alovida ajratilgan mushaklar guruhining kuchini orttirish maqsadidagi mashg’ulotlar o’zining xususiy tomonlariga ega ekanligini unutmasligimiz lozim. Bu o’z navbatida mushaklar guruhidagi garmoniyani buzilishiga sabab bo’lishi mumkin. Garmoniyani buzilishi tanani, tashqi qiyofani standartidan chiqib ketishiga olib keladi.

Maktab yoshidagilar uchun kuch harakat sifatini rivojlanterish, tarbiyalash uchun mashg’ulotlarga tizimli qatnashishga ruxsat 14 yoshga to’lgandan so’ng beriladi. Odatda tanasi ko’rinishi, qaddi-qomatini chiroyli bo’lishini orzu qilgan o’smirlar, yoshlari, boshqachasiga aytganda kuch talab qiladigan mashqlar bilan

shug'ullanishni xush ko'radiganlar - yoqtiradiganlar "atletlar gimnastikasi", "shtanga ko'taruvchilar klublari", "armreysling klubi", "atletizm" sport seksiyalari yoki sport klublariga a'zo bo'ladilar.

Bunday klublar o'zlarining ish mazmuniga ko'ra mashg'ulotlarining shakllari, o'quv-tarbiya jarayoni uchun qo'ygan vazifalari, shug'ullanishni tashkillash uslubiyotlari bilan biri biridan farqlanadi. Masalan, "atletlar gimnastikasi" klubi faoliyati shug'ullanuvchilarni trenirovka mashg'ulotlariga faqat kuchni rivojlantiradigan maxsus mashqlar bilan shug'ullanishini nazarda tutmaydi. Ular turli xildagi boshqa mashqlardan – yugurishlar, sakrashlar, harakat koordinatsiyasini rivojlantirish uchun uloqtirish mashqlaridan, mushaklami taranglashtiruvchi, ulami bo'shashtiruvchi va boshqa mashqlardan foydalanadilar. Ularni bijarishni bilish zaruriyat. Egiluvchanlik uchun esa turli xildagi o'yinlar va musobaqalar tavsiya qilinadi. Musobaqa mashqlari va boshqa tadbirdorlari orqali kuch qobiliyattingizining darajasini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lasiz.

1-jadval

Egiluvchanlikning rivojlanish ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi va statistik ishonchhliliqi

Bosqichlar	Egiluvchanlik (sm)			
	1 test*		2 test*	
	$\bar{x} \pm \sigma$	V, %	$\bar{x} \pm \sigma$	V, %
1-tajriba (n=11)	48,74 ± 4,42	9,07	12,88 ± 1,36	10,56
2- tajriba (n=11)	52,37 ± 4,47	8,54	13,76 ± 1,35	9,81
t	1,92		1,52	
P	>0,05		>0,1	

Egiluvchanlik asosan sport mahoratining darajasini belgilaydi. Sport gimnastikasida rivojlantirish nuqtai nazardan egiluvchanlik muhim sifatlardan biri hisoblanadi.

Yosh gimnastikachilarni tadqiqotda berilgan elementlarni o'zlashtirish uchun maxsus tayyorgarlik imkoniyatlari, turli nazorat sinovlari asosida tekshirilib, ushbu qobiliyatlarini gimnastikachilarning texnik tayyorgarligiga ta'sir darajasini aniqlash uchun korrelyasion tahlil o'tkazildi. Tezkorlik va kuch qobiliyatlarini baholash uchun individual nazorat mashqlarini bajarish samaradorligi sport tayyorgarligining o'quv-mashg'ulot bosqichidagi gimnastikachilar jismoniy tayyorgarligining asosiy ko'nikmalarini o'zlashtirish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq emasligi aniqlandi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir shug'ul nuvchi harakatning o'zi uchun mos bo'lgan rasional texnikasini axtarishi, topish va uni egallashida faqat mexanika qonunlariga tayanish bilan cheklanmay, harakatning, materiyaning eng yuqori shakllariga, ulardan biri bo'lmiss biologik qonuniyatlarga tayanishiga to'g'ri keladi.

Maktab o'quvchilarining jis-moniy tarbiyasi va uni tarkibida amalga oshiriladigan jismoniy tayyorgarlik jarayoni inson organizmidagi zaruriy harakat sifatlari haqidagi boshlang'ich bilimlar STT jismoniy madaniyatining amaliy malakalari va nazariy bilimlarining asosi hisoblanadi. Har bir shaxsning jismoniy qobiliyatlarini darajasi haqida aniq belgilangan bilimga ega bo'lishi jismoniy madaniyat sohibligiga zamin tayyorlaydi.

Maktab yoshidagilar uchun kuch harakat sifatini rivojlantirish, tarbiyalash uchun mashg'ulotlarga tizimli qatnashishga ruxsat 14 yoshga to'lgandan so'ng beriladi. Odatda tanasi ko'rinishi, qaddi-qomatini chirolyi bo'lishini orzu qilgan o'smirlar, yoshlar, boshqachasiga aytganda kuch talab qiladigan mashqlar bilan shug'ullanishni xush ko'radiganlar - yoqtiradiganlar "atletlar gimnastikasi", "shtanga ko'taruvchilar klublari", "armreysling klubi", "atletizm" sport seksiyalari yoki sport klublariga a'zo bo'ladilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-dekabrdagi PQ-449-son qarori Toshkent sh., 2022-yil 23-dekabr. Lex.uz
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-5924-son. Toshkent sh., 2020 yil 24 yanvar. Lex.uz

PEDAGOGIKA

3. Umarov D.X. «Teoriya i metodika fizicheskoy kultury, sporta». Uchebnoye posobiye. T.,-2021. 239 c
8. Goncharova O.V. «Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish». - T.: 2005 y.
9. Sh.Xankeldiyev, A.Abdullayev va boshqalar. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. Farg'ona- 2009 y.
10. Sh.Xankeldiyev, A.Abdullayev, N.Azizov, B.Haydarov, A.Xasanov Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari. Farg'ona – 2011.
11. Sh.Xankeldiyev, A.Abdullayev va boshqalar. Umumiy ta'lim maktabi o'quvchilarining sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. Farg'ona – 2011.